

**"SHARQ MUTAFAKKIRLARI ILMIY MEROSIDA TABIAT VA EKOLOGIYA
TALQINI"**

Navoiy Davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti

Biologiya ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Rustamova Barchinoy Yorqin qizi

Ilmiy rahbar: Ummatova M.E

Annotasiya: *Ushbu maqolada Sharqning buyuk allomalari Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk allomalar ilmiy merosida tabiat va ekologiya bilan bo'liq qarashlar yuritiladi. Ularning tabiatshunoslik, geologiya, biologiya va ekologiya fanlariga qo'shgan hissasi, inson va tabiat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik haqidagi g'oyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirishda ajdodlarimizning ilmiy qarashlaridan foydalanish mumkinligiga alohida urg'u beriladi. Oradan uzoq asrlar o'tgan bo'lsada, ular asarlaridagi ilmiy qarashlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi haqida fikr yuritiladi.*

Annotation: *This article discusses the views on nature and ecology in the scientific heritage of great Eastern scholars such as Muhammad Al-Khwarizmi, Abu Nasr Al-Farabi, Abu Rayhan Al-Biruni, Abu Ali Ibn Sina, Alisher Navoi, and Zahiriddin Muhammad Babur. Their contributions to the fields of natural sciences, geology, biology, and ecology, as well as their ideas about the interconnection between humans and nature, are analyzed. Special emphasis is placed on the possibility of utilizing the scientific views of our ancestors in shaping ecological culture. Although many centuries have passed, their scientific perspectives remain relevant today.*

Kalit So'zlar: *Sharq mutafakkirlari, tabiatshunoslik, ekologiya, geologiya, astronomiya, geografik tarqalish, iqlim o'zgarishlari, Yer qobig'i, ovqatlanish tartibi, ichki kasalliklar, ko'zga ko'rinmas organizmlar, ekologik madaniyat, texnologik qaramlik, smartfonlar, gadjetlar, tabiiy resurslar, agroekosistemalar urbanoekosistemalar, ifloslanish darajasi*

Keywords; *Eastern thinkers, natural science, ecology, geology, astronomy, geographical distribution, climate change, Earth's crust, dietary habits, internal diseases, microscopic organisms, ecological culture, technological dependence, smartphones, gadgets, natural resources, agroecosystems, urban ecosystems, pollution level.*

Sharq mutafakkirlari o'z davrida ilm-fanning turli sohalarida muhim izlanishlar olib borganlar. Ayniqsa, tabiatshunoslik, ekologiya va geologiya yo'nalishida qoldirgan meroslari hozirgi zamon ilm-faniga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Ularning fikrlariga ko'ra, inson va tabiat o'zaro bog'liq bo'lib, atrof-muhitni muhofaza qilish har bir avlodning muqaddas burchidir.



Sharq mutafakkirlaridan Muhammad Al-Xorazmiy matematika, astronomiya geografiya va tabiatshunoslik fanlarini o'rgangan. U o'zingiz "Kitob surat al-arz" (Yer tasviri kitobida) o'simlik va hayvonot dunyosining geografik tarqalishi, iqlim o'zgarishlari va ularning tirik organizmlarga ta'siri haqida qimmatli ma'lumotlarni bayon qilgan.

Abu Nasr Forobiy falsafa, tabiatshunoslik va biologiya sohalarini o'rgangan. U tabiat hodisalarini tahlil qilishda falsafiy yondashuvdan foydalangan. U o'zining "Kitob al-a'zo al-hayvon" (Hayvon a'zolari haqida kitob) asarida hayvonlarning tuzilishi, ularning vazifalari va tabiatdagi o'rni, tabiiy va sun'iy tanlash, insonning tabiatga ta'siri haqidagi fikrlarni bayon qilgan.

Abu Rayhon Beruniy tabiatshunoslik, astronomiya va geologiya fanlari bo'yicha ko'plab asarlar yozgan. U o'zining "Saydana" asarida 1116 xil dorivor moddalar, jumladan 750 xil o'simlikdan olingan dorilar haqida aniq ma'lumotlarni keltirgan. Beruniy fikriga ko'ra, o'simlik va hayvonlar yashash uchun kurashadi va tabiiy tanlanishning bir qismi hisoblanadi. Yer qobig'i doimiy o'zgarishda bo'lib, o'simlik va hayvonot dunyosi ushbu jarayonga moslashadi.

Abu Ali ibn Sino dunyoga mashhur qomusiy olim bo'lib, tabiat va ekologiyaga oid qarashlarni ilgari surgan. Uning eng mashhur asarlaridan biri bo'lgan "Tib qonunlari"da atrof-muhitning inson salomatligiga ta'siri haqida fikrlar bayon etilgan, ovqatlanish tartibining buzilishi kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi ta'kidlangan. Olim odamdagi ba'zi ichki kasalliklar (chechak, vabo, sil) ko'zga ko'rinmas organizmlar orqali paydo bo'lishini e'tirof etadi.

Zahiriddin Muxammad Bobur nafaqat davlat arbobi, balki, tabiatshunos ham bo'lgan. U "Boburnoma" asarida turli joylarning iqlimi, tuproq tarkibi va o'simlik turlari haqida yozgan. Ekologik madaniyat orqali tabiatni asrash mumkinligini ta'kidlagan.

Alisher Navoiy ijodida tabiat yuksak badiiy uslubda tasvirlangan. U tabiatni nafaqat go'zallik timsoli, balki, inson ma'naviyatining ajralmas qismi deb bilgan. U

o'zining "Mahbub ul-qulub" (Ko'ngillarning sevgani) asarida atrof-muhitni muhofaza qilish, bog' yaratish va tabiatga g'amxo'rlik qilish insonning burchi ekanligi haqida yozadi

Sharq va G'arb olimlarining tabiat haqidagi qarashlari inson va atrof-muhit o'rtasidagi mustahkam bog'liqlikni tasdiqlaydi. Alisher Navoiy tabiatni badiiy tasvirlash orqali uning inson hayotidagi o'rnini ko'rsatgan bo'lsa, Aristotel, Leonardo da Vinchi, Charlz Darvin va Ernest Gekkel kabi olimlar tabiatshunoslik va ekologiyaning ilmiy asoslarini yaratgan. Bugungi kunda bu mutafakkirlarning qarashlari ekologik muammolarni hal qilish va tabiatni muhofaza qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Sharq mutafakkirlari tabiatni chuqur o'rgangan va atrof-muhit bilan inson o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asosda tushuntirib bergan. Ularning ekologiyaga oid qarashlari bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lib, tabiatni muhofaza qilish, ekologik madaniyatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu mutafakkirlarning ilmiy merosi bizga tabiatni asrab-avaylash va atrof-muhitni muhofaza qilish yo'lida qimmatli dars beradi. Sharq mutafakkirlari, ularning ilmiy merosi va tabiatga bo'lgan munosabati, insoniyat tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. Ular tabiatni faqatgina hayot manbai sifatida emas, balki inson ruhiyatining, fikrlarining va ilm-fanining qayta tiklanish manbai sifatida qabul qilganlar. Ushbu mutafakkirlarning ekosistemalarga bo'lgan nazariyalari va tabiat haqidagi qarashlari, ekologik muammolarni hal etish yo'lida asosiy ko'rsatkich bo'lishi mumkin. Ularning asarlarida tabiat va inson o'rtasidagi muvozanatni saqlash, resurslardan maqsadli va oqilona foydalanish, shuningdek, atrof-muhitga hurmat bilan munosabatda bo'lish zarurligi ta'kidlangan. Bu qadriyatlar, bugungi global ekologik muammo va iqlim o'zgarishlari sharoitida yanada dolzarb hisoblanadi. Sharq mutafakkirlarining merosini o'rganish, nafaqat o'z xalqimiz, balki butun insoniyat uchun muhim ahamiyatga ega. Ularning tabiat va ekologiya borasidagi fikrlari, zamonaviy ilmiy-tadqiqotlar va atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun, ushbu merosni o'rganish va uning amaliy tadbirini izlash, bizni yanada barqaror kelajak sari yo'l ochadi. Natijada, Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi, yanada shakllangan va rivojlanayotgan ekologik fikrlarimizga dastak bo'lib, tabiat bilan uyg'unlikda yashashni ta'minlash borasidagi harakatlarimizni kuchaytirishi zarurdir.



Ma'lumki, axborot texnologiyalari asrida yashayapmiz va texnologik qaramlik kundan kunga kuchayib borayotgani hech kimga sir emas. Ayniqsa, yoshlar orasida smartfonlar va boshqa turli xil gadjetlarga bog'lanib qolish holatlari, kitobga, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqning pasayishi oqibatida nafaqat yoshlar salohiyati, balki, ekologik madaniyat ham juda past darajaga tushib qolgan. Yildan yilga aholi sonining ortib borishi, ularda hayotiy ehtiyojlar uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak, elektr energiyasi va boshqa tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyojning ham ortishiga sabab bo'lmoqda. Ko'pqavatli turar-joy binolarining ko'plab qurilishi, agroekosistemalar, urbanoekosistemalar maydonlari hajmining ortishi, aholi zich yashovchi shaharlarda sanoat korxonalari ko'pligi, sanoat chiqindilari bilan ifloslanish darajasi yuqori ekanligi barchamizni ogohlikka chaqiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Alisher Navoiy. "Xamsa", "Lison ut-Tayr", "Mahbub ul-qulub" – Toshkent: Fan, 1991.
2. Muhammad al-Xorazmiy. "Kitob surat al-arz" – Qadimiy geografik manba.
3. Abu Nasr Forobiy. "Kitob al-a'zo al-hayvon" – Tabiatshunoslikka oid asarlar to'plami.
4. Abu Rayhon Beruniy. "Saydana", "Mineralogiya", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" – Toshkent: Fan, 1968.
5. Abu Ali ibn Sino. "Tib qonunlari", "Kitob-ash-shifo" – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma" – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2008.
7. Aristotel. "Hayvonlar tarixi" – Qadimiy yunon biologiyasi bo'yicha asar.
8. Leonardo da Vinchi. "Ilmiy qo'lyozmalar" – Florensiya: 1510-yillar.
9. Charlz Darvin. "Turlar kelib chiqishi" – London: 1859.
10. Ernst Haeckel. "Ekologiya asoslari" – Berlin: 1866.
11. Mirzayev T., G'ofurov Z. "Tabiatni asrash – umumbashariy muammo" – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
12. <http://www.ziyonet.uz> – O'zbekiston ta'lim portali.